

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATLARINI O‘STIRISHDA MATNLI MASALALARDAN FOYDALANISHNING USULLARI

Davirova Shoxista Abjolilovna

*Samarqand viloyati Past Darg‘om tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga
qarashli 68-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinf matematika darslari o‘quvchilarning ilk hisobkitobni o‘rganishiga asos bo‘ladi. Shu tufayli ushbu darslarni interfaol metodlar yordamida qiziqarli tarzda tashkil etish talab qilinadi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishda matnli masalalarning ahamiyatiga bag‘ishlangan*

***Kalit so‘zlar:** matematik masala, tushuncha, fikrlash qobiliyati, dars, yig‘indi.*

Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta‘minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llashlari uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish boshlang‘ich matematik ta‘limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtai nazardan o‘quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to‘plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo‘llashga o‘rgatish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta‘lim mazmuni va o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o‘zaro aloqadorlikda va o‘quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo‘shgan holda o‘qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish

va amalda qo'llash o'qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar tushunchasini mohiyatini va hisoblash usullarini yetkazish uslubiyatini ishlab chiqish o'z ichiga o'quvchilarda umuman boshlang'ich matematika asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni oladi. Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirishi o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala matnini tinglashga shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rganish kerak, shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi masala matnini tinglashga va masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur. Buning uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o'qishni so'ngra esa tovush chiqarib ifodali o'qishni taklif qilish kerak. Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishga doir har xil sodda masalalar ya'ni bir xil qo'shiluvchilarning yig'indisini topishga karrali va teng bo'laklarga bo'lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish va kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma'lum komponentlarni topishga doir sodda masalalar

shuningdek turli murakkab masalalar shu jumladan keltirib yechiladigan masalalar, ikki ko'paytuvchining yig'indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig'indisini so'ngra ko'paytirish bo'lishga keltiradigan va boshqa masalalarni ko'rib chiqamiz. Agar berilgan masala o'zining murakkabligi bilan sinfda echilgan masalalarga mos yoki o'xshasa u holda o'quvchilar taklif qilingan masalaning yechilishi yo'lini mustaqil topishga o'rgatish kerak. SHu maqsadda o'quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng sodda umumiy usullarini egallashlari lozim. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida masala shartini qisqa va yaqqol yozib olishlari, yechish yo'llari topishni osonlashtirish maqsadida shartini chizma yoki rasm bilan tasvirlay olishlari kerak. O'quvchilar yechilayotgan masalada nima ma'lum nima noma'lumligini, masala shartidan nima kelib chiqishini, qanday arifmetik amallar yordamida qanday tartibda masala savoliga javob topish mumkinligini aniq va ravshan tushuntirishga o'rganishlari kerak. O'quvchilar har bir amalni nega tanlaganliklarini anglay olishlari masala bo'yicha ifoda yoki tenglama tuzib olishlari uni yecha olishlari, savolga javob berib, yechimning to'g'riligini tekshirib olishlari lozim. Masalalarda aniq material bo'lib ular yordamida o'quvchilarda yangi bilimlar vujudga keladi hamda uni yechish jarayonida fikrlash amallarini bajarishga o'rganadilar. So'ngra masalani yechish uchun 6 ga 3 ni qo'shish kerakligi va hosil bo'lgan 9 son bu ikki sonning yig'indini bo'lishni tushuntiradi. SHunga o'xshash masalalarni ko'plab yechib bolalar qo'shish amali haqidagi tushunchalarni asta sekin egallab boradilar va uni umumlashtrish asosida qo'shish uchun ularni birga sanash kerakligini tushunadilar. Masalan: amalning noma'lum komponentini topishga doir masalani yechayotib o'quvchilar arifmetik amallarning komponentlari va natijalar orasidagi bog'lanishni ajratish va uni masalalar yechishga qo'llashga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, masalalarda o'quvchilar ko'radigan, sezadigan va tushunadigan aniq material bo'lib, ular yordamida o'quvchilarda yangi bilimlar vujudga keladi hamda uni yechish jarayonida fikrlash amallarini bajarishga o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Ikkinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O'qituvchil 2005 yil.
2. Bikboeva.N.U. Yangiboeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O'qituvchil 2005 yil.
3. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishmetodikasi. Toshkent. —Fan va texnologiyal 2005 yil.